O’zbekiston Respublikasi Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktori A.Burxanov raisligida o’tkazilgan yig’ilish 1-SONLI BAYoNNOMASI

2024 yil 17 fevral **Toshkent shahri**

Raislik etuvchi: **A.Burxanov**
Agentlik direktori

Direktor o’rinbosarlari: U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov

Agentlik xodimlari: Barcha xodimlar

Kotib: I.Abdullaev

Kun tartibidagi masala:

I. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tarkibiy tarmoqlari tomonidan 2023 yilda amalga oshirilgan ishlarni muhokama qilish hamda kelgusidagi vazifalarni belgilash.

Yig’ilishni raislik etuvchi kirish so’zi bilan ochib, kun tartibidagi masala yuzasidan quyidagilarni ta’kidlab o’tdi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan 2023 yilda korruptsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish borasida bir qator ishlar amalga oshirilganligini aytib o’tdi.

Xususan, 4 ta normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, turli sohalarda o’rganishlar o’rganishlar o’tkazilib, natijasi bo’yicha 23 ta jinoyat ishi va 96 ta ma’muriy ishlar qo’zg’atildi, 74 nafar shaxs intizomiy javobgarlikka tortildi, davlat xaridlarini masofaviy monitoring tartibida o’rganish jarayonida vazirlik va idoralarga 178 ta holatda jami 136 mlrd so’mlik taqdimnomalar kiritilib, shundan 138 ta holatda jami 110 mlrd so’mlik davlat xaridlari bekor qilindi.

Davlat organlari va tashkilotlarining korruptsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini reyting baholash hamda davlat organlari va tashkilotlarining ochiqlik indeksi joriy etildi, 101 ta davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan banklarda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati yo’lga qo’yildi.

Shuningdek yig’ilish davomida, amalga oshirilgan islohotlar bilan bir qatorda mazkur normativ-huquqiy hujjatlar bilan Agentlik zimmasiga yuklatilgan ayrim vazifalarning to’liq ijrosi ta’minlanmayotganligi tanqid qilindi.

Kun tartibidagi masala yuzasidan direktor o’rinbosarlari U.Tuxtasheva va U.Mavlyanovlarning hamda tarkibiy tarmoq rahbarlarining hisobotlari hamda takliflari eshitilib, muhokama etildi.

Qayd qilinganlarga asosan yig’ilish

QAROR QILADI:

1. Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi direktorining o’rinbosarlari (U.Tuxtasheva, U.Mavlyanov), Tizimli tahlil va prognozlashtirish yig’ma bo’limi (I.Abdullaev) va barcha tarkibiy tarmoq rahbarlariga:

1.1 “Davlat fuqarolik xizmatchisi tomonidan xizmat safarlari, xalqaro va boshqa rasmiy tadbirlar munosabati bilan olinishi mumkin bo’lgan sovg’a qiymati, shuningdek uni tasarruf etish tartibi to’g’risidagi nizom” talablariga rioya qilinayotganlik holati o’rganilib, natijalari bo’yicha tahliliy ma’lumot kiritilsin.

1.2 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6247-son Farmoniga asosan davlat organlari va tashkilotlari tomonidan ochiq e’lon qilinishi lozim bo’lgan 40 turdagi ma’lumotlarning e’lon qilish holati monitoring qilinib, axborot berilsin.

1.3 O’zbekiston Respublikasining “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korruptsiyaga qarshi ekspertizasi to’g’risida”gi Qonun ijrosi yuzasidan korruptsiyaga qarshi ekspertiza jarayonlarini muvofiqlashtirish maqsadida ma’lumotlar yig’ilib, tahlil qilinsin va ma’lumot kiritilsin.

1.4 Agentlikning jamoatchilik nazoratini rivojlantirish jamg’armasi mablag’lari hisobidan fuqarolik jamiyati institutlari uchun grant tanlovlari e’lon qilinsin.

1.5 Hududlarda amalga oshirilayotgan chora-tadbirlarni kuchaytirish maqsadida har bir hududda 2 tadan sohani tanlab, ushbu sohalarda ochiqlikning ta’minlanishi, ichki nazorat tuzilmalarining tashkil etilishi, Nodavlat notijorat tashkilotlari ishtiroki o’rganilib takliflar ishlab chiqilsin.

1.6 Davlat organlari va tashkilotlarida korruptsiyaga qarshi kurashish ichki nazorat tuzilmasi rahbarini lavozimga tayinlash va ozod etish masalasini Agentlik bilan kelishish bo’yicha qonunchilik talablariga rioya etilish holatini o’rganilib, ushbu tartibga rioya etilmagan holatlar yuzasidan tegishli ta’sir choralari ko’rilsin.

1.7 O’zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-34-son qaroriga ijrosini ta’minlash maqsadida 2023 yilda respublikada sodir etilgan korruptsiyaga oid jinoyatlar tahlil qilinib, OAVlarida e’lon qilinishi ta’minlansin.

Raislik etuvchi A. Burxanov

Kotib I. Abdullaev